
Modern trends in teaching foreign languages and methods of expanding students' vocabulary

Durdona Farhodovna Urinova
urinovadurdona9@gmail.com

Senior Teacher of the Department of Practical English Translation, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State World Languages University

Annotation

This scientific article comprehensively examines modern trends in foreign language teaching and innovative methods aimed at developing students' vocabulary competence. The study analyzes the role of Communicative Language Teaching, Task-Based Learning, Project-Based Learning, gamification, multimedia technologies, digital platforms, and interactive teaching methods in contemporary foreign language education. Special attention is paid to the development of speaking skills, communicative competence, and lexical competence through modern pedagogical technologies. The article also discusses the effectiveness of digital platforms such as Quizlet, Kahoot, Duolingo, and Wordwall in vocabulary acquisition and language learning processes. The findings of the research demonstrate that communicative and technology-based methods significantly increase students' motivation and interest in learning foreign languages, facilitate faster vocabulary retention, and improve learners' ability to communicate fluently in English. Furthermore, the article highlights the pedagogical potential, practical significance, and educational advantages of innovative language teaching methods in modern educational systems. The study confirms that integrating interactive technologies and communicative methodologies into foreign language instruction contributes substantially to the effectiveness and quality of language education.

Keywords

Foreign language education, modern pedagogical technologies, communicative approach, vocabulary development, lexical competence, speaking skills, digital platforms, gamification, Task-Based Learning, Project-Based Learning, multimedia technologies, interactive methods, vocabulary acquisition, communicative competence

Chet tilini o'qitishning zamonaviy tendensiyalari va talabalarning lug'at boyligini oshiruvchi metodlar

O'rinova Durdona Farhodovna
urinovadurdona9@gmail.com

"Ingliz tili amaliy tarjima" kafedrasida katta o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada chet tilini o'qitishning zamonaviy tendensiyalari hamda talabalarning lug'at boyligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kommunikativ yondashuv, Task-Based Learning, Project-Based Learning, gamification, multimedia texnologiyalari, raqamli platformalar va interaktiv metodlarning chet tili ta'limidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarning speaking ko'nikmalari, kommunikativ kompetensiyasi va lexical

competence darajasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada Quizlet, Kahoot, Duolingo, Wordwall kabi platformalarning vocabulary acquisition jarayonidagi samaradorligi ilmiy tadqiqotlar asosida izohlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ va texnologiyaga asoslangan metodlar talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, yangi leksik birliklarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi hamda chet tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Maqola natijalari oliy ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish zarurligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida talabalar faol ishtirokini ta'minlovchi interaktiv metodlar mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish, motivatsiyani kuchaytirish hamda zamonaviy raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Shuningdek, maqolada zamonaviy metodlarning afzalliklari, pedagogik imkoniyatlari va ta'lim jarayonidagi amaliy ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar *Chet tili ta'limi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kommunikativ yondashuv, lug'at boyligi, lexical competence, speaking skills, digital platforms, gamification, Task-Based Learning, Project-Based Learning, multimedia technologies, interaktiv metodlar, vocabulary acquisition, communicative competence*

Современные тенденции в преподавании иностранных языков и методы расширения словарного запаса учащихся

Уринова Дурдона Фарходовна

urinovadurdona9@gmail.com

*Старший преподаватель кафедры
практического перевода английского языка,
Доктор философии (PhD) по
педагогическим наукам,
Узбекский государственный университет
мировых языков*

Аннотация *В данной научной статье всесторонне рассматриваются современные тенденции преподавания иностранных языков и инновационные методы, направленные на развитие словарного запаса студентов. В исследовании анализируются коммуникативный подход, Task-Based Learning, Project-Based Learning, игровые технологии, мультимедийные средства, цифровые платформы и интерактивные методы обучения иностранным языкам. Особое внимание уделяется вопросам формирования коммуникативной компетенции, развитию навыков устной речи и расширению лексического запаса учащихся посредством современных педагогических технологий. В статье также раскрывается эффективность использования таких цифровых платформ, как Quizlet, Kahoot, Duolingo и Wordwall в процессе усвоения новой лексики. Результаты исследования показывают, что коммуникативные и технологически ориентированные методы значительно повышают интерес студентов к изучению иностранных языков, способствуют более быстрому усвоению новых слов и формированию навыков свободного общения. В ходе исследования было установлено, что интерактивные методы, обеспечивающие активное участие студентов, являются важным фактором развития навыков*

самостоятельного обучения, усиления мотивации и формирования современных цифровых компетенций. Кроме того, в статье подробно освещаются педагогические возможности, преимущества и практическая значимость современных методов обучения в системе языкового образования.

**Ключевые
слова**

Преподавание иностранных языков, современные педагогические технологии, коммуникативный подход, словарный запас, лексическая компетенция, навыки говорения, цифровые платформы, игровые технологии, Task-Based Learning, Project-Based Learning, мультимедийные технологии, интерактивные методы, усвоение лексики, коммуникативная компетенция

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda chet tillarini o'qitish tizimi ham tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy ta'lim paradigmasi an'anaviy grammatika va tarjimaga asoslangan yondashuvlardan kommunikativ, interaktiv hamda texnologiyaga integratsiyalashgan metodlarga o'tishni talab qilmoqda. Bugungi kunda chet tilini bilish nafaqat akademik ehtiyoj, balki professional faoliyat, xalqaro hamkorlik, ilm-fan, biznes va madaniyatlararo kommunikatsiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Shu sababli chet tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, talabalarning lug'at boyligini rivojlantirish, erkin fikrlashini shakllantirish va speaking ko'nikmalarini takomillashtirish zamonaviy chet tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. An'anaviy chet tili o'qitish metodlarida asosan grammatik qoidalarni yodlash, matn tarjima qilish va yozma mashqlar ustun bo'lgan. Bunday metodlar ayrim nazariy bilimlarni shakllantirgan bo'lsa-da, talabalarning real kommunikativ vaziyatlarda chet tilidan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'ygan. Natijada ko'plab talabalar grammatik qoidalarni yaxshi bilgan holda ham erkin gapira olmagan yoki o'z fikrini mustaqil ifoda etishda

qiyinchiliklarga duch kelgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa tilni muloqot vositasi sifatida o'qitishga asoslanadi. Bu esa talabalarning amaliy nutqini, lug'at boyligini va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Chet tilini o'qitishning zamonaviy tendensiyalaridan biri Communicative Language Teaching hisoblanadi. Ushbu metod tilni real kommunikatsiya vositasi sifatida o'rganishga asoslanadi. Communicative Language Teachingda asosiy e'tibor grammatika qoidalarini alohida o'rganishga emas, balki tilni tabiiy muloqot jarayonida qo'llashga qaratiladi. talabalar juftlik va guruh ishlari, role-play, debat, munozara, intervyu va prezentatsiyalar orqali faol muloqotga kirishadilar. Natijada ular yangi so'z va iboralarni real kontekstda qo'llash orqali tezroq o'zlashtiradilar. David Nunan, Jeremy Harmer va Jack Richards (Harmer, 2015; Nunan, 2004; Richards, 2014) kabi olimlarning tadqiqotlarida kommunikativ metod talabalarning speaking ko'nikmalarini rivojlantirishda eng samarali yondashuvlardan biri sifatida baholanadi. Ularning fikricha, kommunikativ faoliyatlar davomida talabalar tilni tabiiy ravishda qabul qiladi va amaliy qo'llash orqali lug'at boyligini kengaytiradi. Ayniqsa, speaking jarayonida talabalar yangi so'zlarni faol ishlatgani sababli vocabulary retention darajasi yuqori bo'ladi.

Task-Based Language Teaching ham zamonaviy chet tili ta'limining muhim metodlaridan biridir. Ushbu metodda talabalar tilni amaliy topshiriqlarni bajarish orqali o'rganadilar. Topshiriqlar real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan bo'lib, talabalardan muammoni hal qilish, ma'lumot almashish yoki fikr bildirish talab etiladi. Masalan, "Travel Planning", "Environmental Problems", "Healthy Lifestyle" yoki "Digital Technologies" kabi mavzularda tashkil etilgan topshiriqlar davomida talabalar mavzuga oid yangi leksik birliklarni o'zlashtiradilar (Nation, 2001). Task-Based Learning metodining asosiy ustunligi shundaki, unda til maqsad emas, balki kommunikatsiya vositasi sifatida qo'llaniladi. Bu esa talabalarni erkin fikrlashga, o'z nuqtai nazarini ifodalashga va yangi vocabularyni amaliyotda qo'llashga undaydi. Rod Ellis va Jane Willis tadqiqotlariga ko'ra, task-based faoliyatlar talabalarning speaking fluency va lexical competence darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Project-Based Learning ham zamonaviy chet tili ta'limida keng qo'llanilayotgan metodlardan biridir. Ushbu metod talabani mustaqil izlanishga, axborot topishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va natijalarni taqdim etishga o'rgatadi (Xoliqova, 2020). Loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar mavzuga oid ko'plab yangi so'zlarni o'rganadi va ularni amaliy muloqotda qo'llaydi. Masalan, "Global Environmental Issues", "Technology in Education", "Cultural Diversity" kabi loyihalar davomida talabalar ingliz tilida izlanish olib boradi, prezentatsiyalar tayyorlaydi va guruh muhokamarida ishtirok etadi.

Lug'at boyligini oshirishda digital technologies va online platformslarning roli ham juda katta. Hozirgi kunda Quizlet, Kahoot, Duolingo, Memrise, Wordwall, BBC Learning English va British Council platformalari talabalar vocabulary kompetensiyasini rivojlantirishda keng qo'llanilmoqda (O'rinova, 2025). Ushbu platformalar interaktiv mashqlar, testlar, audio materiallar va o'yinlar orqali yangi so'zlarni

samarali o'zlashtirish imkonini beradi. Quizlet platformasi ayniqsa vocabulary teachingda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Flashcardlar, matching games va testlar yordamida talabalar yangi so'zlarni takrorlaydi va mustahkamlaydi. Kahoot platformasi esa gamification elementlari orqali talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'yin shaklidagi testlar va competition-based activities talabalarni faol qatnashishga undaydi. Gamification zamonaviy chet tili ta'limining eng innovatsion tendensiyalaridan biri hisoblanadi. Gamification o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni anglatadi. Points, badges, rewards va leaderboards kabi elementlar talabalarning motivatsiyasini oshiradi. Vocabulary race, guessing games, word matching, storytelling competitions kabi faoliyatlar lug'at boyligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Zamonaviy ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Audio va video materiallar, podkastlar, subtitrlar va interaktiv taqdimotlar talabalarning listening va reading skills bilan bir qatorda lug'at boyligini ham rivojlantiradi. Richard Mayerning multimedia learning nazariyasiga ko'ra, vizual va audial axborotning birgalikda berilishi ma'lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi.

Flipped Classroom modeli ham chet tilini o'qitishning zamonaviy metodlaridan biri sifatida keng tarqalmoqda. Ushbu metodda talabalar nazariy materiallarni uyda mustaqil o'rganadi, dars vaqti esa amaliy faoliyatlarga bag'ishlanadi. Natijada speaking activities, vocabulary practice va communicative discussions uchun ko'proq vaqt ajratiladi. Bu esa tilni amaliy qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Differentiated Instruction yondashuvi ham lug'at boyligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir talabaning til darajasi, qobiliyati va o'rganish uslubi turlicha bo'lgani sababli individual yondashuv talab etiladi. Kuchli talabalarga murakkabroq lexical tasks berilsa, boshlang'ich darajadagi

talabalarga visual support va simpler vocabulary exercises taqdim etiladi.

Shuningdek, extensive reading va intensive reading metodlari ham vocabulary acquisition jarayonida samarali hisoblanadi. Extensive reading davomida talabalar katta hajmdagi qiziqarli matnlarni o'qish orqali yangi so'zlarni tabiiy ravishda o'zlashtiradi. Intensive reading esa murakkab matnlarni chuqur tahlil qilish orqali academic vocabularyni rivojlantiradi. Shuningdek, keng qamrovli o'qish va chuqurlashtirilgan o'qish metodlari ham talabalar lug'at boyligini oshirishda hamda matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ikki metod zamonaviy chet tili ta'limida eng samarali yondashuvlardan biri sifatida baholanadi. Chunki ular talabalarning nafaqat yangi so'zlarni o'rganishiga, balki ularni real matn tarkibida anglashiga, mazmunni tahlil qilishiga va mustaqil fikrlashiga yordam beradi. Keng qamrovli o'qish metodida talabalar katta hajmdagi qiziqarli va o'z yoshiga mos matnlarni muntazam ravishda o'qiydi. Bunda asosiy maqsad har bir so'zni tarjima qilish emas, balki umumiy mazmunni tushunish va o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Talabalar hikoyalar, ertaklar, sarguzasht asarlar, maqolalar yoki sodda badiiy matnlarni erkin tarzda o'qish orqali yangi so'zlarga tabiiy ravishda duch keladi. So'zlar bir necha marotaba turli kontekstlarda uchragani sababli ular asta-sekin xotirada mustahkamlanadi. Bu metod talabalarda tez o'qish, mazmunni umumiy anglash va matn bilan erkin ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Keng qamrovli o'qishning yana bir muhim jihati shundaki, u talabalarning chet tiliga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Agar matnlar qiziqarli va talabalarning yoshiga mos tanlansa, ular til o'rganishni majburiyat sifatida emas, balki zavqli jarayon sifatida qabul qiladi. Natijada talabalarda mustaqil o'qishga bo'lgan ehtiyoj shakllanadi. Bu esa lug'at boyligining tabiiy ravishda ortishiga xizmat qiladi.

Chuqurlashtirilgan o'qish metodida esa matn batafsil tahlil qilinadi. Ushbu

yondashuvda har bir jumla, ibora va yangi so'zning ma'nosi ustida alohida ishlanadi. Talabalar matnning grammatik tuzilishini, asosiy g'oyasini, muallif fikrini va uslubiy xususiyatlarini chuqur o'rganadi. Bu metod ayniqsa ilmiy, rasmiy yoki murakkab matnlar bilan ishlashda samarali hisoblanadi. Chuqurlashtirilgan o'qish davomida talabalarning yangi so'zlarning ma'nosini lug'at yordamida aniqlaydi, ularni gaplarda qo'llaydi va mazmunini tahlil qiladi. Natijada talabalarning ilmiy va akademik so'z boyligi rivojlanadi. Bundan tashqari, matnni tahlil qilish jarayonida talabalar tanqidiy fikrlash, xulosa chiqarish va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Mazkur ikki metod bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar hisoblanadi. Keng qamrovli o'qish talabalarning erkin o'qish malakasini va umumiy lug'at boyligini oshirsa, chuqurlashtirilgan o'qish murakkab matnlarni tahlil qilish va ilmiy so'zlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Shu sababli zamonaviy chet tili ta'limida ushbu metodlardan birgalikda foydalanish yuqori samaradorlik beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam ravishda o'qish faoliyati bilan shug'ullanuvchi talabalarning nafaqat lug'at boyligi, balki yozma va og'zaki nutqi ham rivojlanadi. O'qish jarayonida talabalar yangi so'zlarning qanday qo'llanishini ko'radi, jumla tuzilishini o'rganadi va ularni keyinchalik o'z nutqida qo'llay boshlaydi. Ayniqsa, kommunikativ yondashuv bilan birgalikda qo'llanganda o'qish metodlari speaking ko'nikmalarini rivojlantirishda ham samarali natija beradi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida ushbu metodlarni yanada samarali tashkil etish mumkin. Elektron kitoblar, onlayn maqolalar, interaktiv matnlar va audio qo'llanmalar talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu orqali talabalar tilni nafaqat dars davomida, balki mustaqil ravishda ham o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Chet tilini o'qitishda collaborative learning metodlari ham zamonaviy tendensiyalar qatoriga kiradi. Pair work va

group work faoliyatlari talabalarni birgalikda ishlashga, fikr almashishga va muloqot qilishga o'rgatadi. Vygotskiyning social constructivism nazariyasiga ko'ra, bilim ijtimoiy muloqot jarayonida samaraliroq shakllanadi. Shu sababli collaborative activities vocabulary va speaking skills rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarining chet tili ta'limiga integratsiyasi ham yangi tendensiyalardan biri hisoblanadi. ChatGPT, Grammarly, ELSA Speak kabi AI-based tools talabalarning talafuz qilish, yozish va lug'at boyligini oshirishda qo'llanilmoqda. Ayniqsa, ELSA Speak platformasi og'zaki nutqda talafuzni rivojlantirish orqali kommunikativ kompetensiyani oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kommunikativ metodlar qo'llanilgan darslarda talabalarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishi ortadi. Ular darslarda faolroq qatnashadi, yangi so'zlarni tezroq o'zlashtiradi va gapirish jarayonida

erkinroq muloqot qiladi. Motivatsiya oshishi esa til o'rganish samaradorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'qitishning zamonaviy tendensiyalari innovatsion texnologiyalar, kommunikativ metodlar va learner-centered approaches bilan chambarchas bog'liqdir. Communicative Language Teaching, Task-Based Learning, Project-Based Learning, gamification, digital platforms va multimedia vositalari talabalarning lug'at boyligini rivojlantirish, gapirish ko'nikmasini oshirish hamda chet tiliga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy metodlarning asosiy afzalligi shundaki, ular tilni nazariy bilim sifatida emas, balki real kommunikatsiya vositasi sifatida o'rgatadi. Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuvlarni chet tili ta'limiga integratsiya qilish bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

References:

1. Harmer, J. (2015). *The practice of English language teaching* (5th ed.). Pearson Education Limited.
2. Nation, I. S. P. (2001). *Learning vocabulary in another language*. Cambridge University Press.
3. Nunan, D. (2004). *Task-based language teaching*. Cambridge University Press.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Xoliqova, F. (2020). *Innovative methods and communicative approaches in foreign language teaching*. Fan va Texnologiya.
6. Urinova, D. F. (2025). *Kreativ metodlar orqali bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'qish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish* (Doctoral dissertation, pedagogical sciences).